XALQ DEPUTATLARI NORIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2023 - yil 12 - iyun VI-51-66-6-83-K/23 Norin tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 126-moddasiga asosan, Norin tuman mahalliy byudjetining 2023 yil I-chorak daromadlar rejasini oshirib bajargan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrdagi “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son Qonunining 13-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 noyabrdagi PQ-427-sonli, 2020 yil 29 sentyabrdagi PQ-4845-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 iyundagi 390-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, Xalq Deputatlari Norin tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 noyabrdagi “Bolalarni dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog‘lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-427-sonli qaroriga asosan, “Bolalarni sog‘lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko‘maklashish jamg‘armasi”ga yo‘naltirish uchun 50000.0 (Ellik million) ming so‘m;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 sentyabrdagi PQ-4845-sonli qaroriga asosan, tuman hokimligining “Orif Nurli kelajak” MCHJdan bo‘lgan kreditorlik qarzdorligi qoplash uchun 22000.0 (Yigirma ikki million) ming so‘m;

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 iyundagi 390-sonli qaroriga muvofiq, tuman hokimligi “E-qaror” elektron tizimixarajatlari uchun 12000.0 (o‘n ikki million) ming so‘m;

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 445-sonli qarori ijrosini ta’minlash, tumanda yo‘l xarakati xavfsizlini ta’minlash, transport vositalariga belgilangan jarimalarni o‘z vaqtida undirish choralarini ko‘rish maqsadida 1 dona DAN xizmati hodimiga 4 oylik ish xaqi va yagona ijtimoiy to‘lovi xarajati uchun 35000.0 (O‘ttiz besh million) ming so‘m;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4102-sonli qaroriga asosan tumandagi sektorlarda foydalaniladigan telefon hamda internet xizmati uchun 4610.0 (To‘rt million olti yuz o‘n) ming so‘m mablag‘lar 2023 yil 1-chorak daromadlar rejasini ortirilib bajarilgan qismi hisobidan ajratilsin.

2. Harajatlarni amalga oshirishga mas’ul tashkilotlar rahbarlariga: ajratilgan mablag‘lar doirasida belgilangan tartibda to‘lovlar amalga oshirilishini ta’minlash; moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman hokimligining iqtisodiyot va moliya bo‘limi va tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limiga taqdim etish; ajratilgan mablag‘lardan to‘g‘ri, maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlash hamda iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy byudjtiga qaytarish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (G‘.Primqulov)ga tuman mahalliy byudjeti xarajatlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (A.Xasanov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq Deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetini shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlik masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Ikramov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Ж.Нурматов**